

PhD Sherali XOLOV

Mustaqil tadqiqotchi

MAMLAKATLARDA MOLIYA BOZORLARI MODELLARINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatlarda moliya bozorlari modellarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bankka va bozorga yo‘naltirilgan modellarni solishtirma yondashuv orqali o‘rganadi, shuningdek, investitsiya hajmi, YaIM o‘sishi va bozor likvidligi kabi empirik ko‘rsatkichlar asosida natijalarni baholaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moliya bozori modeli mamlakat iqtisodiy barqarorligi, institutsional rivojlanish va investitsiya samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi, shuning uchun har bir mamlakat uchun individual va kompleks yondashuv zarur. Shuningdek, maqolada COVID-19 pandemiyasi, institutsional investorlar faolligi va moliya siyosati omillari moliya bozorlari modellari samaradorligini aniqlashda muhim rol o‘ynashi, shuningdek, nazariy va amaliy jihatdan moliya tizimini takomillashtirishga hissa qo‘shishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: moliya bozori modeli, bankka asoslangan model, bozorga yo‘naltirilgan model, rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, investitsiya hajmi, YaIM o‘sishi, bozor likvidligi, institutsional investorlar, empirik tadqiqot, moliyaviy barqarorlik, moliya siyosati, diversifikatsiya, COVID-19, moliya tizimi.

ОСОБЕННОСТИ МОДЕЛЕЙ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ В СТРАНАХ

Данная статья посвящена анализу особенностей моделей финансовых рынков в разных странах, включая сравнение ориентированных на банки и ориентированных на рынок моделей в развитых и развивающихся странах, а

также оценке результатов на основе эмпирических показателей, таких как объем инвестиций, рост ВВП и индекс ликвидности рынка.

Результаты исследования показывают, что модель финансового рынка напрямую влияет на экономическую стабильность страны, институциональное развитие и эффективность инвестиций, поэтому требуется индивидуальный и комплексный подход для каждой страны. Кроме того, в статье подчеркивается важность факторов, таких как пандемия COVID-19, активность институциональных инвесторов и политика регулирования, которые играют ключевую роль в оценке эффективности моделей финансовых рынков и способствуют теоретическому и практическому совершенствованию финансовой системы.

Ключевые слова: модель финансового рынка, банковская модель, рыночная модель, развитые страны, развивающиеся страны, объем инвестиций, рост ВВП, ликвидность рынка, институциональные инвесторы, эмпирическое исследование, финансовая стабильность, финансовая политика, диверсификация, COVID-19, финансовая система

DISTINCTIVE FEATURES OF FINANCIAL MARKET MODELS IN COUNTRIES

Abstract. This article is devoted to the analysis of the distinctive features of financial market models in different countries, including a comparison of bank-based and market-based models in developed and developing countries, as well as the evaluation of results based on empirical indicators such as investment volume, GDP growth, and market liquidity index.

The study results demonstrate that the financial market model directly affects a country's economic stability, institutional development, and investment efficiency, which requires an individual and comprehensive approach for each country. Furthermore, the article emphasizes the importance of factors such as the COVID-19 pandemic, institutional investor activity, and regulatory policy, which play a key role in assessing the effectiveness of financial market models and contribute to the theoretical and practical improvement of the financial system.

Keywords: financial market model, bank-based model, market-based model, developed countries, developing countries, investment volume, GDP growth, market liquidity, institutional investors, empirical research, financial stability, financial policy, diversification, COVID-19, financial system

Kirish

Mamlakatlarda moliya bozorlari modellari iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular milliy iqtisodiyotning institutsional tuzilmasi va tarixiy rivojlanish yo‘nalishlarini aks ettiradi. Xalqaro Moliyaviy Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, Jahon Banki va IMF tomonidan to‘plangan moliyaviy tizim indikatorlari 214 ta davlatni qamrab oluvchi Global Financial Development Database’da moliyaviy institutlar va bozorlar bo‘yicha 108 ta ko‘rsatkich mavjudligi qayd etilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar banklar, qimmatli qog‘ozlar bozori va boshqa moliyaviy segmentlar holatini o‘zaro solishtirish imkonini beradi^[1]. Shu bilan birga, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining Monetary and Financial Statistics (MFS) ma’lumotlar to‘plami mamlakatlar bo‘yicha aksiyalar narxlari va boshqa moliyaviy aktivlar bo‘yicha standartlashtirilmagan statistikani taqdim etadi, bu esa global bozor narxlarining dinamikasini tahlil qilish uchun zarur ilmiy baza sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, bank aktivlari va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha milliy statistik ma’lumotlar, masalan, banklarning jami aktivlari va qimmatli qog‘ozlar savdosining o‘sishi ko‘rsatkichlari o‘tgan yillarda sezilarli darajada kuchayganligi, moliya bozorlari ishtirokchilari uchun risklarni baholash va investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi². Shu sababli, rivojlangan davlatlarda kapital bozori ustuvor bo‘lgan model shakllangan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bank tizimiga asoslangan moliya bozori modeli ko‘proq uchraydi. Mazkur modellar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular moliyaviy resurslarning qay darajada samarali taqsimlanishini belgilab beradi. Ayniqsa, moliya bozori modellari orqali investitsiya oqimlari shakllanadi va real sektorni moliyalashtirish mexanizmlari aniqlanadi. Bugungi globallashuv sharoitida, moliya bozorlari o‘rtasidagi integratsiya kuchayib borayotgan bir

paytda, milliy modellarning dolzarbligi yanada ortmoqda. Shu bois, har bir mamlakat o'z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, moliya bozori modelini takomillashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliya bozorlari modellari mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ular risklarni taqsimlash va kapital harakatini boshqarishga xizmat qiladi. Agar moliya bozori modeli samarali tashkil etilgan bo'lsa, unda moliyaviy inqirozlarning salbiy ta'siri sezilarli darajada kamayadi. Bankka yo'naltirilgan modelda moliyaviy vositachilar yetakchi o'rin tutsa, bozor modelida qimmatli qog'ozlar bozori asosiy moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Bu farqlar moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi va investorlarga yaratilgan imkoniyatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, moliya bozori modelining tanlanishi davlatning pul-kredit va fiskal siyosati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Natijada, moliya bozorlari modellarini chuqur tahlil qilish iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakat moliya bozori modelining shakllanishiga huquqiy muhit va davlat institutlarining rivojlanganlik darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Garchi ayrim mamlakatlarda bozor mexanizmlari ustuvor bo'lsa-da, davlat aralashuvi saqlanib qolayotgan modellar ham mavjud. Bunday sharoitda, moliya bozori modeli iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat moliya bozori modellarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar joriy etilishi bilan moliya bozorlari yangi sifat bosqichiga chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan, mavjud modellarni transformatsiya qilish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Moliya bozorlari modellarining ahamiyati shundaki, ular uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni safarbar etadi. Agar moliya bozori chuqur va likvid bo'lsa, tadbirkorlik subyektlari uchun kapitalga kirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, samarali model aholining jamg'armalarini investitsiyalarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Bu jarayon iqtisodiy faollikni oshiradi va bandlik darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Jahon moliya bozorlarining statistik ko'rsatkichlariga asoslangan tahlil shuni ko'rsatadiki, masalan, global moliyaviy aktivlar o'sishining yarmidan ko'pi AQSh bozorlariga

to'g'ri keladi, bunda investitsiyalar aksiyalar, obligatsiyalar va fond bozorlarida joylashganligi bo'yicha 59% ga yaqin ulushga ega. Biroq, Xalqaro moliya tizimi barqarorligi bo'yicha hisobotlarda banklardan tashqari moliyaviy institutlar — sug'urta kompaniyalari, xususiy kredit provayderlari va hedj fondlar — aktivlari qadri 2024 yilda 256,8 trillion dollarga yetib, an'anaviy banklardan oshib ketgani qayd etilib, bu global moliya tizimida yangi risk omillarini keltirib chiqargan^[3]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliya bozori modeli va iqtisodiy raqobatbardoshlik o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud. Demak, moliya bozorlari modellarini rivojlantirish mamlakatning barqaror va inklyuziv taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Maqola mavzusida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar moliya bozorlari modellarining milliy iqtisodiyot rivojiga ta'sir mexanizmlarini chuqur anglash imkonini berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu modellar orqali moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi va investitsiya jarayonlarining barqarorligi ta'minlanadi. Globallashtirish va moliyaviy integratsiya sharoitida turli mamlakatlarda amal qilayotgan moliya bozorlari modellarini qiyosiy tahlil qilish zarurati ortib bormoqda, zero bunday tahlillar moliyaviy inqirozlar va tizimli risklarning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun institutsional islohotlar va moliya bozorlarini chuqurlashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Moliya bozorlari modellarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali davlatning pul-kredit va fiskal siyosatini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi, bu esa makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar orqali raqamli texnologiyalar va innovatsion moliyaviy instrumentlarning mavjud modellar doirasidagi o'rni va samaradorligi aniqlanadi. Demak, maqola mavzusida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki moliya bozorlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy qarorlar qabul qilishda ham zarur ilmiy asosni shakllantiradi.

Iqtisodchi olimlardan Aggarwal va Goodell (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Yevropa mamlakatlarida moliya bozorlari va moliyaviy institutlar o'rtasidagi nisbat madaniy omillar hamda boshqa milliy xususiyatlar ta'sirida shakllanishi panel ma'lumotlar tahlili asosida asoslab berilgan bo'lib, ushbu ish moliya tizimlari arxitekturasining institutsional va ijtimoiy ildizlarini ochib beradi. Mazkur maqolada o'n bir yillik davr mobaynida o'n to'qqizta yirik Yevropa mamlakati misolida banklar va moliya bozorlari rivojlanishidagi farqlar empirik jihatdan isbotlangan⁴. Shu bilan birga, Aslı Demirgüç-Kunt, Ross Levine tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli mamlakatlararo qiyosiy tadqiqotda 150 ga yaqin davlatlar moliyaviy tizimlari moliyaviy vositachilar hajmi va faolligi ko'rsatkichlari asosida guruhlangan bo'lib, bu yondashuv moliya tizimlari turlari o'rtasidagi strukturaviy tafovutlarni aniqlash imkonini bergan⁵. Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliya bozorlari va institutlarining rivojlanish darajasi faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki madaniy, institutsional va milliy xususiyatlar bilan ham belgilanadi, bu esa moliya bozorlari modellarini o'rganishda kompleks yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Fields (2009) rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor modellarini tahlil qilar ekan, mehnat va moliya bozorlari segmentatsiyalashgan tuzilishga ega ekanini ta'kidlab, bunday sharoitda yagona universal model emas, balki milliy xususiyatlarni hisobga oluvchi moslashuvchan modellar zarurligini asoslab beradi⁶. Isaeva va Leshchenko (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda zamonaviy moliya bozorlarini tartibga solish modellarining samaradorligi funksional va institutsional yondashuvlar kesimida baholanib, idoralararo qarama-qarshiliklar moliyaviy bozorlar barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan ko'rsatib berilgan⁷.

Caviglia, Krause va Thimann (2002) Yevropa Ittifoqiga qo'shiluvchi mamlakatlar moliyaviy sektorining asosiy xususiyatlarini o'rganib, foiz stavkalarining bozor asosida shakllanishi, moliya bozorlarining liberallasuvi va institutsional chuqurlikning past darajasi ushbu mamlakatlarga xos muhim belgilar ekanini aniqlagan⁸. Rivojlanayotgan va transformatsiya jarayonidagi mamlakatlarda moliya bozorlari modellarini o'rganish iqtisodiy, institutsional va

tartibga solish omillarini birgalikda tahlil qilishni talab etadi hamda bu yoʻnalishdagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligi va zarurligini yanada kuchaytiradi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Elmirzayev va Xoliqov (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda COVID-19 pandemiyasining global moliya bozorlariga salbiy taʼsiri tahlil qilinib, inqiroz sharoitida moliyaviy bozorlarning yuqori darajadagi beqarorligi va investorlar ishonchining pasayishi empirik dalillar asosida asoslab berilgan^[9].

Karimov tomonidan Oʻzbekiston fond bozorida investorlarning pul mablagʻlarini jalb qilish mexanizmlarini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotda milliy fond bozorining institutsional va tashkiliy muammolari aniqlanib, kapital jalb etish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan¹⁰.

Omonov va Otaxonova ishida institutsional investorlarning mohiyati va ularning global moliya bozorlaridagi oʻrni yoritilib, aynan ushbu investorlar uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va bozor likvidligini taʼminlovchi asosiy subyektlar ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan^[11].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, global inqirozlar, milliy fond bozorlari rivoji va institutsional investorlar faolligi moliya bozorlari modellarining shakllanishi va barqaror faoliyat yuritishida oʻzaro uzviy bogʻliq omillar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi shuni koʻrsatadiki, maqolada mamlakatlarda moliya bozorlari modellarini tahlil qilish uchun panel maʼlumotlar, empirik indikatorlar va jadvallar asosida solishtirma yondashuv qoʻllanilgan, chunki bu usul turli mamlakatlarning iqtisodiy va institutsional xususiyatlarini bir vaqtning oʻzida tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar moliya bozorlarining samaradorligi, investitsiya hajmi va bozor likvidligi koʻrsatkichlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash uchun kvantitativ tahlil metodlari va statistik regressiya modellari qoʻllanilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda empirik jadvallar va raqamli maʼlumotlar asosida nazariy tushunchalar va real iqtisodiy koʻrsatkichlar

integratsiyalangan holda ishlov berilgan, bu esa natijalarni ishonchli va amaliy jihatdan ahamiyatli qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatlarda moliya bozorlari modellarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bankka yo'naltirilgan va bozorga yo'naltirilgan modellar o'rtasidagi farqlar iqtisodiy o'sish sur'atlari va moliyaviy barqarorlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kapital bozori chuqurligi yuqori bo'lib, bu investitsiya oqimlarining diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bank sektorining ustuvorligi saqlanib qolayotgani moliyalashtirish manbalarining cheklanganligiga olib kelmoqda. Shuningdek, institutsional muhit va huquqiy bazaning rivojlanganlik darajasi moliya bozori modelining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi aniqlangan.

Moliya bozori modeli deganda mamlakatda moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlash mexanizmlarining institutsional va funksional tuzilmasi tushuniladi. Bankka asoslangan modelda moliyalashtirish jarayonida tijorat banklari yetakchi rol o'ynab, kreditlash asosiy instrument hisoblanadi. Bozorga yo'naltirilgan modelda esa aksiyalar va obligatsiyalar bozori asosiy moliyalashtirish manbai sifatida shakllanadi. Mazkur tushunchalarning ilmiy ahamiyati shundaki, ular moliya bozorlarining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash imkonini beradi. Amaliy jihatdan esa moliya bozori modellarini to'g'ri tanlash va rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining samaradorligini oshiradi.

1-jadval

Moliya bozori modellari bo'yicha empirik tadqiqotlar natijalari [¹²]

Ko'rsatkichlar	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar
Bank aktivlari / YaIM (%)	95,4	48,7
Fond bozori kapitallashuvi / YaIM (%)	112,6	39,2
Xususiy sektor kreditlari / YaIM (%)	88,1	41,5
Institutsional investorlar ulushi (%)	63,0	27,4

1-jadvaldagi empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda bank aktivlari, fond bozori kapitallashuvi va xususiy sektor kreditlari rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, bu moliya bozori samaradorligi va likvidlikning yuqoriligini aks ettiradi. Bank aktivlari / YaIM ko'rsatkichining 95,4% darajasida bo'lishi rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy resurslarning katta qismini banklar orqali jalb qilish imkoniyatini beradi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 48,7% daraja bu imkoniyatlarning cheklanganligini bildiradi. Fond bozori kapitallashuvi / YaIM indeksi 112,6% bilan rivojlangan mamlakatlarda investitsiya oqimlarini diversifikatsiyalash va xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatini oshirsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 39,2% bilan bu imkoniyat nisbatan past ekanligini ko'rsatadi.

Xususiy sektor kreditlari / YaIM ko'rsatkichidagi farq – 88,1% va 41,5% – moliyalashtirishning banklar orqali amalga oshirilish darajasidagi tafovutni va iqtisodiy faollikning sezilarli darajada yuqoriligi bilan bog'liqdir. Institutsional investorlar ulushi rivojlangan mamlakatlarda 63% ga yetib, bozor likvidligini oshirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynasa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 27,4% daraja bu faoliyatning cheklanganligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, jadval moliya bozorlari modellari o'rtasidagi struktural va institutsional farqlarni vizual va empirik jihatdan aniqlab beradi, bu esa mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish va moliyaviy siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

2-jadval

Mamlakatlarda moliya bozorlari modellarining tahlili^[13, 14]

Mamlakat guruhi	Moliya bozori modeli	Investitsiya hajmi (mlrd \$)	YaIM o'sishi (%)	Bozor likvidligi indeksi
AQSh	Bozorga yo'naltirilgan	4 250	2,4	0,82
Germaniya	Bankka asoslangan	1 180	1,9	0,67
Janubiy Koreya	Aralash model	740	2,6	0,71
O'zbekiston	Bankka asoslangan	18,5	5,7	0,34

2-jadvaldagi tahlil shuni ko'rsatadiki, moliya bozori modeli mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya hajmi va bozor likvidligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki bozorga yo'naltirilgan model AQShda 4 250 mlrd \$ investitsiya hajmi bilan YaIM o'sishini 2,4% darajasida ta'minlab, bozor likvidligi indeksining 0,82 ga yetishiga yordam beradi.

Germaniya misolida bankka asoslangan model 1 180 mlrd \$ investitsiya hajmi va 1,9% YaIM o'sishi bilan rivojlangan bo'lsa-da, bozor likvidligi indeksi 0,67 darajasida qolgan, bu modelning likvidlikni oshirish imkoniyatlari bozor modeliga nisbatan cheklanganligini ko'rsatadi.

Janubiy Koreya aralash modelni qo'llagan holda 740 mlrd \$ investitsiya hajmi va 2,6% YaIM o'sishini qayd etgan, bozor likvidligi indeksi esa 0,71 bo'lib, moliya modeli va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaqqol aks ettiradi.

O'zbekiston bankka asoslangan model orqali 18,5 mlrd \$ investitsiya hajmini jalb qilgan bo'lsa-da, bozor likvidligi indeksi 0,34 darajasida qolgan, bu esa mamlakat moliya bozorining chuqurligi va diversifikatsiya darajasining past ekanligini ko'rsatadi.

Jadval shuningdek, moliya bozori modelining tanlovi va investitsiya hajmi, YaIM o'sishi hamda bozor likvidligi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni vizual tarzda ta'kidlaydi.

Ushbu empirik ma'lumotlar mamlakatlar moliya tizimlarining institutsional va strukturaviy farqlarini aniqlashga imkon beradi, shuningdek, moliya siyosatini shakllantirish va rivojlantirishda amaliy asos sifatida xizmat qiladi. Natijada, 2-jadval moliya bozori modellari va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib, mamlakatlar iqtisodiyotini moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil qilishga zamin yaratadi.

Moliyaviy integratsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda bozor risklarini taqsimlash mexanizmlari nisbatan samarali ishlamoqda. Umuman olganda, tahlil natijalari moliya bozori modellarini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliya bozori modellarining institutsional tuzilmasi

mamlakatlarning makroiqtisodiy siyosati bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Xususan, pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligi moliya bozori infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq ekani aniqlangan. Tahlil jarayonida qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektor investitsiyalarining yuqori ekani kuzatildi. Bunda institutsional investorlar faolligi bozor likvidligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, moliya bozorlarini tartibga solish mexanizmlarining nomukammalligi tizimli risklarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, natijalar moliya bozori modellarini kompleks va muvozanatli rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, moliya bozorlari modellari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi, chunki bozor va bankka yo‘naltirilgan modellar investitsiya hajmi va likvidlik darajasini aniqlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda fond bozori kapitallashuvi va institutsional investorlar ulushi yuqori bo‘lib, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va risklarni boshqarishda asosiy rol o‘ynaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bankka asoslangan model ustunligi moliyaviy diversifikatsiya imkoniyatlarini cheklaydi, bu esa uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashni murakkablashtiradi.

Empirik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, moliya bozori modeli tanlovi mamlakatning YaIM o‘sish sur’ati va bozor likvidligi bilan chambarchas bog‘liq, zero bozorga yo‘naltirilgan model investitsiya oqimlarini ko‘proq jalb qilish imkonini beradi. Shuningdek, aralash va bankka asoslangan modellar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiy siyosati va institutsional muhit bilan uyg‘unlashgan holda samarali ishlaydi.

Bu natijalar moliya bozorlari modellarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish zarurligini, shuningdek, investorlar ishonchi va barqarorlikni oshirish muhimligini tasdiqlaydi. Tahlil natijalari moliya bozorlarining samaradorligi faqat iqtisodiy omillarga bog‘liq emas, balki institutsional va madaniy xususiyatlar bilan ham belgilanadi, shuning uchun har bir mamlakat uchun moslashtirilgan yondashuv zarur. Empirik jadvallarda ko‘rsatilganidek, rivojlangan mamlakatlar bozor likvidligi va investitsiya hajmi bo‘yicha ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega, bu esa moliya tizimining chuqurligi va barqarorligidan dalolat beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa investitsiya hajmi past va likvidlik indeksi cheklangan bo‘lib, moliya bozori modellarini takomillashtirishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

COVID-19 pandemiyasi natijasida global moliya bozorlari yuqori beqarorlikka duch keldi, bu esa moliya bozorlarining barqarorligini oshirish va institutlarni mustahkamlash zaruratini yanada ko‘rsatdi. Shuningdek, milliy fond bozorlarida investorlarning jalb qilinishi va institutsional investorlar faolligi iqtisodiy o‘sish va moliya tizimi barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa mamlakatlar moliya bozorlari modellarini rivojlantirish, diversifikatsiya qilish va zamonaviy regulyatorlik mexanizmlarini joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tahlil va empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, moliya bozorlari modellari mamlakat iqtisodiy siyosati va barqarorligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular investitsiya hajmi, bozor likvidligi va institutsional ishonchni belgilaydi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi farqlar moliya bozorlari modellarining samaradorligi va diversifikatsiya darajasini aks ettiradi, bu esa har bir mamlakat uchun individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois, moliya bozorlari modellarini chuqur o‘rganish, ularni takomillashtirish va milliy iqtisodiy sharoitga moslash iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanish uchun asosiy shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon Banki. Global Financial Development Report 2017/2018: Bankers Without Borders. Washington, DC: World Bank Group, 2018. – Global Financial Development Database to‘plami bo‘yicha statistik ma’lumotlar, banklar va moliyaviy bozorlar samaradorligi tahlili. – p. 1–312.
2. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi. Monetary and Financial Statistics Manual and Compilation Guide. Washington, DC: IMF, 2017. P. 350
3. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi. International Financial Statistics Yearbook. Washington, DC: IMF, 2025. – Jahon moliyaviy statistikasi asosiy ko‘rsatkichlari, bank tizimi va moliyaviy bozorlar to‘g‘risida yillik statistik hisobot. – p. 1–600.

4. Aggarwal R., Goodell J. W. Financial markets versus institutions in European countries: Influence of culture and other national characteristics //International Business Review. – 2010. – T. 19. – №. 5. – С. 502-520.
5. Financial M. B. Systems: Cross-Country Comparisons //Financial structure and economic growth: A cross-country comparison of banks, markets, and development. – 2001. – С. 81.
6. Fields G. S. MARKET MODELS IN DEVELOPING COUNTRIES //The Oxford handbook of philosophy of economics. – 2009. – С. 476.
7. Isaeva E. A., Leshchenko J. G. Evaluation of the effectiveness of modern models of regulation of financial markets //Креативная экономика. – 2019. – Т. 13. – №. 10. – С. 2045-2066.
8. Caviglia G., Krause G., Thimann C. Key features of the financial sectors in EU accession countries //Financial Sectors in EU Accession Countries. Frankfurt/M, European Central Bank. – 2002. – С. 15-30.
9. Samariddin E., Khamidulla K. The negative impact of the covid-19 pandemic on global financial markets //ACADEMICA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL Учредители: Diva Enterprises Private Limited. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 277.
10. Karimov A. O ‘zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag ‘larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – Т. 1. – №. 8.
11. Omonov S., Otakhonova S. Essence of institutional investors and their importance in global financial markets //International Finance and Accounting. – 2020. – Т. 2020. – №. 6. – С. 19.
12. World Bank. Global Financial Development Database 2023. Washington, DC: World Bank Group.
13. Bloomberg / Financial Times (2024). – AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya bozorlaridagi investitsiya hajmi va YaIM o‘sish statistikasi.
14. Toshkent RFE. Annual Report 2023. – O‘zbekiston fond bozori investitsiya hajmi va bozor likvidligi. (uzse.uz)